

HIJRIY-QAMARIY OY NOMLARINING SEMANTIK TAHLILI

Mardanova Dilshoda Sadriddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası doktoranti

dilshodamardanova1996@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21101469>

Annotatsiya. Mazkur tezisda hijriy-qamariy taqvimdagi o'n ikki oy nomining tarixiy-lisoniy tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida oy nomlarining onomastik maqomi — ularni maxsus xronim sifatida tasniflash masalasi turadi. Alohida e'tibor johiliyat davridagi "nasiy" amaliyoti va uning bekor qilinishi natijasida yuzaga kelgan semantik demotivatsiya hodisasiga qaratiladi.

Kalit so'zlar: *hijriy-qamariy taqvim, xronim, semantik demotivatsiya, nasiy, oy nomlari etimologiyasi, onomastika, Beruniy*

SEMANTIC ANALYSIS OF THE NAMES OF THE HIJRI LUNAR MONTHS

Abstract. This thesis analyzes the historical-linguistic nature of the names of the twelve months of the Hijri lunar calendar. The study focuses on the onomastic status of the month names — the question of their classification as a specific type of chrononym. Particular attention is given to the pre-Islamic (Jahiliyyah) practice of *nasī'* and the phenomenon of semantic demotivation that arose as a result of its abolition.

Keywords: Hijri lunar calendar, chrononym, semantic demotivation, *nasī'*, etymology of month names, onomastics, al-Biruni.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ МЕСЯЦЕВ ЛУННОЙ ХИДЖРЫ

Аннотация. В данных тезисах анализируется историко-лингвистическая природа названий двенадцати месяцев хиджри-камарийского календаря. В центре исследования находится вопрос об ономастическом статусе названий месяцев — их классификация как особого вида хронимов. Особое внимание уделяется практике «насий» эпохи джахилии и явлению семантической демотивации, возникшему в результате её отмены.

Ключевые слова: хиджри-камарийский календарь, хроним, семантическая демотивация, насий, этимология названий месяцев, ономастика, Беруни.

Kirish. Har qanday xalq taqvimidagi vaqt birliklarining nomlanishi shunchaki shartli belgi emas, balki muayyan davr ijtimoiy-xo'jalik va tabiiy hayotining tilga ko'chgan izidir. Arab tilidagi oy nomlari ham shu qonuniyatdan mustasno emas: ular sof lisoniy hodisa bo'libgina qolmay, balki islomgacha bo'lgan (johiliyat) davridagi turmush tarzining onomastik in'ikosidir. Qur'oni karimda yil hisobining o'n ikki oydan iboratligi va ulardan to'rttasining harom (muqaddas) deb belgilangani bevosita bayon qilinadi (Tavba surasi, 36-oyat). Ushbu tezisning maqsadi — oy nomlarini xronim sifatida tasniflash va ularning semantik motivatsiya turlarini tizimli ko'rsatishdir.

Lingvistik belgida ifodalovchi va ifodalanmish o'rtasidagi munosabat tilshunoslikning qadimgi muammolaridan biridir. Ilmiy lingvistik ta'limotning ilk davridayoq mazkur masala eng qizg'in bahslarga sababchi bo'lgan.(6:101) Ifodalovchi (nom) va ifodalanmish (predmet)

o'rtasida tabiiy bog'liqlik bor(*motivatsiya*) yoki yo'qligi (*demotivatsiya*) masalasi qamariy yil hisobini ifodalovchi oy nomlari misolida ham mulohazali o'rinlarga sababchi bo'ladi.

Ko'pchilik xalqlar orasida ikki xil: quyosh (shamsiy) va oy (qamariy) taqvimi amal qilgan. Shamsiy ("shams" arabcha *quyosh* ma'nosini bildiradi) taqvim quyosh bilan yer munosabatiga bog'liq bo'lsa, Qamariy ("qomar" arabchada *oy* demakdir) taqvim oyning fazalariga, to'lishib kamayishiga va ma'lum yulduzlar bilan o'zaro munosabatiga asoslangan. Quyoshning ekliptika bo'ylab bir aylanish muddatida Oy o'n ikki yarim martadan kamroq aylanib, o'n ikki marta hilol paydo bo'ladi(ko'rinadi). Oyning burjlar falaki (ekliptika) bo'ylab ana shu o'n ikki marta aylanishini **qamariy yil** deb qabul qilganlar va undan o'n bir kunga yaqin kasr (qoldiq) kunlarini chiqarib tashlaganlar. Shu sababli ekliptika ham teng o'n ikki qismga taqsim etilgan. (1:46) "Qamariy" arabcha "oyga oid, taalluqli", Musulmon olamida oyning ikkita bir xil fazasi, masalan, Oy tug'ilgan kundan kelgusi oy tug'ilgan kungacha bo'lgan vaqt asos qilib olingan yil hisobi. Qamariy hisobdagi yil shamsiy hisobdan deyarli 11 sutka qisqa. Qamariy oy nomlari: muharram, safar, rabiulavval, rabiussaniy, jumodulavval, jumodussaniy, rajab, shabon, ramazon, shavvol, zulqa'da, zulhijja (O'TIL jild 233-bet). Ularning nomlari Islomdan oldingi arab taqvimidan olingan: bu nomlar Islom kelishidan oldin shakllangan bo'lib, arab qabila urf-odatlariga, fasllar va tabiat kuzatuvlariga asoslangan edi va har safar yilning ma'lum paytiga to'g'ri kelar edi. Musulmonlar kirib kelgandan so'ng taqvim isloh qilindi. Islomgacha arablar orasida "nasiy" — oylarni yilma-yil siljitib, quyosh mavsumlariga moslashtirish amaliyoti mavjud edi. Islom bu amaliyotni botil deb e'lon qilgach, taqvim sof lunar hisobga o'tdi, biroq oy nomlari o'zining qadimgi mavsumiy shaklini saqlab qoldi. Natijada nom bilan uning dastlabki mavsumiy ma'nosi o'rtasida uzilish yuzaga keldi: masalan, Rabi' hozirgi arab tilida "bahor" ma'nosini anglatadi-da, taqvimdagi Rabi'ul-avval oyi yil davomida turli fasllarga to'g'ri kelaveradi. Bu hodisa tilshunoslikda semantik demotivatsiya sifatida izohlanadi — so'z o'zining motivlashgan ichki shaklini yo'qotib, sof nominativ birlikka aylanadi. Onomastika nazariyasida vaqt birliklarining nomlari (kun, oy, bayram nomlari) alohida xronim toifasiga ajratiladi. Xronimlar boshqa onim turlaridan (antroponim, toponim) farqli o'laroq, real ashyoni emas, balki takrorlanuvchi vaqt birligini nomlaydi. Shu sababli ularda dastlabki (motivlashgan) ma'no vaqt o'tishi bilan zaiflashib, so'z sof shartli belgiga aylanish ehtimoli boshqa onimlarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'n ikki oy nomi uch semantik guruhga bo'linadi. Birinchi guruh — tabiiy-mavsumiy belgiga asoslangan nomlar: Safar (uy-joylarning bo'shab qolishi yoki o'simliklarning sarg'ayishi), Rabi' (asli kuzgi mavsumga to'g'ri kelgan "r-b-" ildizi), Jumada (qishki sovuqni bildiruvchi "j-m-d" ildizi) va Ramazon (yozgi issiqlikni ifodalovchi "r-m-ض" ildizi). Ikkinchi guruh — ijtimoiy-xo'jalik amaliyotiga asoslangan nomlar: Muharram (urush taqiqlangan muqaddas oy), Sha'bon (qabilalarning tarqalishi), Shavvol (ko'chish) va Zul-q'a'da (bir joyda o'tirib qolish). Uchinchi guruh — diniy-marosim asosidagi nom: Zul-hijja, ya'ni haj arkonlari ado etiladigan oy. Bu tasnif johiliyat davrida qamariy-quyosh aralash ("lunisolar") tizim amalda bo'lganini ko'rsatadi — aks holda oy nomlari muayyan fasllarga bog'lanmagan bo'lardi.

Xulosa. Hijriy-qamariy oy nomlari — johiliyat davridagi mavsumiy-xo'jalik turmush tarzining tilda qotib qolgan izi bo'lib, ularni xronim sifatida o'rganish onomastika va tarix fanlari kesishmasidagi dolzarb yo'nalishlardan biridir. Semantik demotivatsiya nazariyasi

asosida olib borilgan tahlil taqvim leksikasining tarixiy voqelikka nisbat o'zgarmas xususiyatini yaqqol namoyon etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar (Osor al-boqiya). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – 648 b
2. Hakimov M. Turkiston xalqlari qo‘llagan taqvimlar. – Toshkent, 1999
3. Sayfullayeva M. “Osor ul boqiya” asarida xronologiyaga oid ma’lumotlar // Oriental Journal of Social Sciences. — 2022. — Vol. 2, № 3. — B. 46–54.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (I, II, III, IV, V jildlar). – Toshkent, 2006.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1995. – 232 Б.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: «Akademnashr», 2012. – 416 б.